Muhammadho'ja Husaynov
Namangan davlat universiteti
Pedagogika fakulteti katta o'qituvchi
E-mail: muhammadhoja1983@gmail.com

O'QUVCHILARGA TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA OILAVIY QADRIYATLARNI TUTGAN O'RNI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10071509

Annotatsiya. Maqolada oilada farzand tarbiyalash eng muhim masala ekanligi, so'ngra ta'lim muassasalari oldidagi asosiy vazifa ham ta'lim ham tarbiya berish, barkamol shaxs,komil insonni voyaga yetishida mahalla-ko'yning o'rni beqiyosligi haqida, oilani hayot davomiyligini ta'minlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sifatida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Oila, tarbiya, barkamol shaxs, o'quvchi, inson, pedagogik jarayon.

Farzand chinakam va haqiqiy tarbiyani dastlab oiladan topadi va butun umri mobaynida mazkur dargohda ong-shuuriga singgan tuyg'ular qanotida ulg'ayadi. Otang o'tirgan uyning tomiga chiqma!. "Ota qarg'ishi o'q....", "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol va naqllar bejizga aytilmagan. Shuning uchun oila – chindan ham tarbiya o'chog'i.

Kirish.

Oqil insonni tarbiyalashda oilaning o'rni va roliga jiddiy qaramoq darkor. Xayot tajribasi oila va maktab yoxud, maktab va mahalla-ko'yni bolani tarbiyalash o'rtasida doimo uyg'unlik bo'lishi, biri-birini to'ldirishi uchun Oila-maktab-mahalla konseptsiyasi ishlab chiqilgan. Biz ota-onalar bugun uyda farzandga salom farzini o'rgatsak, ayni mahal maktabda ham aynan shunday sabooqqa urg'u berilmog'i, uning aks-sadosi mahalla-kuyda ham jaranglamog'i lozim. Tarbiya bo'shliq va uzilishlarni kechirmaydi, uning oqibati ayanchli oqibatga olib borishi mumkin shu sabab tarbiya rejali tarzda, izchil va hamisha bardavom olib borilsa va uqtirilganidek, maktab, oila, mahalla-ko'y, jamoatchilik tarbiyasi biri-biriga doimo o'zaro uyg'un va hamohang kelsa, natija shubhasiz kutilganidek bo'ladi. Tarbiya– shaxsga muayyan ruxiy jismoniy axloqiy, ana'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon , insonni jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yigindisidir. Demak u shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Asosiy qism.

Tarbiyaga oilada bir xil, maktabda yana bir xil, undan tashqaridagi muhitda esa har ikkovidan farqlanuvchi nazar bilan qarash hollari afsuski, uchrab turadi. Bu kabi holatlarni chuqur idrok etgan mashhur olim-alloma va ustoz-muallim Abdulla Avloniy " Al xusus tarbiya har qanday jamiyat uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasi ekanligini bejiz uqtirmagan.

Tarbiya hozirgi kunimiz–davrimiz va istiqlolimizning alohida muhim, ustuvor va strategik masalasi ekanligini yurtboshimiz hamisha uqtirib, ta'kidlab keladilar. Bu–bejiz emas. Istiqlolning tobora jadallashayotgan odimlari, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy va madaniy sohalarda erishilayotgan olamshumul yutuqlar, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarining yanada tezlashuvi va buning sharofatidan xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongida sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar, odamlar turmush tarzining yuksalishi kabi holatlar ta'lim-tarbiyaga har qachongidan ko'ra

jiddiy nazar bilan qarash zaruratini yuzaga keltirayapti.

Tarbiya darajasi va uning samar-natijalari oila qo‘rg‘oni mustahkamligiga ko‘p jihatdan bog‘liq.Ahil va bahamjihat xonadonda har jihatdan mukammal, komil, qobilu-qodir farzandlar kamolga yetadi. Iqtidorli va salohiyatli farzand qayerda kamol topsa, u avvalambor – oila ravnaqi va undan birinchi galda o‘sha xonadonning o‘zi naf ko‘radi.

Barkamol shaxs kamoli – jamiyatning ham iqboli, ertangi porloq turmush kafolati. O‘z xalqining baxti-iqbolini ko‘zlagan davlat bu boradagi g‘amxo‘rlik va rahnamoliklarga hamisha ustuvor nazar bilan qaraydi. Masalaning bu jihatiga razm solinsa, yurtimizda oila ravnaqi, uning baxtli kelajagi, farzand tarbiyasi, komil inson kamoli uchun talab etiladigan barcha ne’matlar muhayyo ekani, ezgu orzu-niyatlar, oliyjanob maqsadlar ro‘yobiga xizmat qiluvchi ijtimoiy, moddiy, iqtisodiy hamda huquqiy asoslar yetarli hajmlarda yaratilganiga chuqur ishonch hosil qilasiz.

Mamlakat qonunlari oilaning barqaror rivojlanishi, farzandlar tarbiyasining namunali olib borilishi me’yorlarini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobida qayd etilishicha, “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.” Ushbu qoida oila ravnaqi uchun davlat va jamiyatning birday mas’ulligini kafolatlaydi. Ammo, oila barqarorligi, farzand tarbiyasi uchun shuning o‘zi kifoya emas. Buning uchun ota-ona, qolaversa, jamiyatdagi tegishli bo‘g‘inlarning ham bevosita ishtiroki va mas’ulligi zarur. Konstitutsiyamiz masalaning bu jihatini ham nazarda tutadi. “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Oilalar ravnaqi va bola tarbiyasiga daxldor masalalar qomusimiz asosida yaratilgan qonun va qonun osti hujjatlarida yanada ravshan va batafsil bayon etilgan. “Oila kodeksi” matnida so‘z yuritilayotgan masalaga oid amaldagi “Qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlashdan iboratdir” deb ko‘rsatilgan.

Farzand tarbiyalash – oilaning eng muhim va eng asosiy vazifasi. Biroq, oilaning tarbiya bobidagi mas’ulligi shuning o‘zidangina iborat bo‘lmasligi lozim. U bevosita va bilvosita tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi.Unda fursat kelsa, nainki yosh avlod, balki kattalar ham tarbiyalanmog‘i kerak. Inson avvalambor oilada toblanadi, mustaqil hayot ko‘nikmalarini ham shu yerda hosil qiladi. Lekin, hayot bor joyda adashish, chalg‘ish, oila va jamiyat uchun nomunosib turmush tarzini qo‘msash, ixtiyor etish kabi holatlar ham bo‘lishi mumkin. Batafsil surishtirilsa, bu ham ta’lim-tarbiya bobida yo‘l qo‘yilgan xato va qusurlarga borib taqaladi. Ammo, nachora, inson voyaga yetsada, bilib-bilmay yo‘ldan adashgan, nojoiz hatti-harakatlarni ixtiyor etgan ekan, galdagi vazifa tarbiyani yana nafaqat davom qildirish, balki uni bir qadar kuchaytirishdan iborat. Xususan, ayrim oilalardagi nosog‘lom, sovuq munosabatlar, qo‘ydi-chiqdilar jamoatchilik, mahalla-ko‘y, ko‘magidagina muvaffaqiyatli suratda bartaraf etiladi. Ahil va inoq oilalarni boshqalarga ibrat qilib ko‘rsatish, ularning tajribalarini ommalashtirish, shu yuzadan turli anjumanlar, o‘quv mashg‘ulotlari, uchrashuv va muloqotlarni, faollarning, notinch va mo‘rt, zarur hollarda esa mustahkam va barqaror oilalarga vaqti-vaqti bilan tashrifini uyushtirish ham tarbiyaning eng muhim jabhasini tashkil etadi.

Oilaviy tarbiyaga daxldor bu kabi imkonlar anchagina va ulardan oqilona hamda samarali foydalanmoq zarur.

Allomalar tarbiya iborasiga uyg‘un

bo‘lmish “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” naqlini bekorga aytishmagan. Fikrimizcha, inson hayotda bir umr o‘qib, izlanib, intilib, ezgu so‘z, ezgu fikr, ezgu amallarga qo‘l berib, hayot ilmi tajribalaridan muntazam saboq olib yashab, ijobiy xislatlarga ega bo‘lib, komil inson maqomiga yetishadi. Demak, insonga o‘zidan yaxshi nom, yaxshi xotira, yaxshi farzand, yaxshi bog‘ kabi hayotiy ne’matlarni qoldirishdan ham ko‘ra muhimroq yumush yo‘q. Yana bir karra ta’kidlash lozimki, bu xayrli niyatni tarbiya ko‘rgan, hayot maktabini o‘tagan kishilargina namunali uddalay olishadi. Unga monand tarbiyani esa oila atalmish mo‘tabar va muqaddas dargohda olasiz. Bu mujdaga imonimiz komilki, oila-xonadonni ardoqlash, qadrlash, ulug‘lash, undagi ezgulik g‘unchalarini mehr -oqibat ila parvarishlash, sayqal berish yo‘li bilan erishiladi.

Xulosa.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, hayotda oila deb atalmish mustahkam qo‘rg‘onda farzand degan buyuk ne’matni Alloh bergan ekan, inson hamisha ezgu orzu-niyatlar bilan yashaydi. Mamlakat va jamiyatimizning rivoji unib o‘sayotgan yosh avlodga bog‘liq. Hozirda jamiyatda qilinayotgan barcha ishlar yoshlarning baxtu saodati, yorug‘ kelajagi ijobati uchun amalga oshirilmoqda. Ma’naviy barkamol, jismonan yetuk, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi ekanligi real anglamog‘imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимов М. М. ИНТЕГРАЦИЯ С ИНФОРМАТИКОЙ И ИНФОРМАЦИОННЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ ОРГАНИЗАЦИЯ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ //Ученый XXI века. – 2022. – №. 5-2 (86). – С. 43-48.

2. Mirtursunov.Z.«XALQ PEDAGOGIKASI».T.1994 yil.

3.Yusuf Xos Xojib.«QUTADG‘U BILIG» (SO‘Z BOSHI MUALLIFI B.TUXLIEV).T-1990 .

4. Husaynov M. O‘QUVCHI-YOSHLARGA TA’LIM-TARBIYA BERISH VA KASB-XUNARGA YO‘NALTIRISHDA TA’LIM MUASSASALARINING O‘RNI //ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ 1-3 (114) 2. – 2021.

Мухаммадходжа Хусайнов
Наманганский государственный университет
Старший преподаватель педагогического факультета
E-mail: muhammadhoja1983@gmail.com

РОЛЬ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ

Аннотации. В статье говорится, что воспитание ребенка в семье – важнейший вопрос, тогда главная задача образовательных учреждений – воспитывать и воспитывать, о несравненной роли соседства в развитии совершенного человека, совершенного человека. человек, чтобы рассказать семье о продолжительности жизни. Считается, что это место образования, которое окажет сильное влияние на судьбу будущих поколений.

Ключевые слова. Семья, образование, всесторонняя личность, студент, личность, педагогический процесс.

Muhammadhoja Husaynov
Namangan State University
Senior teacher of the Faculty of Pedagogy
E-mail: muhammadhoja1983@gmail.com

THE ROLE OF FAMILY VALUES IN THE EDUCATION AND UPBRINGING OF STUDENTS

Annotation. The article says that raising a child in a family is the most important issue, then the main task of educational institutions is to educate and educate, about the incomparable role of the neighborhood in the development of a perfect person, a perfect person. person to tell family about life expectancy. It is believed that this is a place of education that will have a strong influence on the fate of future generations.

Keywords. Family, education, comprehensive personality, student, personality, pedagogical process.